



UDK:378.147:811

Xayotxon O'RINBOYEVA,

*Katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: khaetkhon.makhamadinovna@mail.ru*

Pedagogika fanlari doktori, dotsent Sh.Atadjanova taqrizi asosida

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKTIV TOPSHIRIQLAR SAMARADORLIGI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabning mustaqil bilim olishga tayyorligi, o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot pedagogik tajriba-sinov metodlari, kuzatish, so'rovnoma, diagnostik baholash va statistik tahlil usullariga asoslandi.

Kalit so'zlar: Reflektiv topshiriqlar, mustaqil ta'lim, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, reflektiv kundalik, portfoliolar, metakognitiv strategiyalar, o'z-o'zini baholash.

THE EFFECTIVENESS OF REFLECTIVE LEARNING TASKS IN DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING SKILLS OF PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS

Annotation

This article examines the effectiveness of reflective learning tasks in developing independent learning skills among pre-service English teachers. In contemporary higher education, fostering students' ability to plan, regulate, evaluate, and improve their own learning has become a key educational objective. The research employed pedagogical experiments, classroom observation, questionnaires, diagnostic assessment, and statistical analysis.

Key words: Reflective learning tasks, independent learning, pre-service English teachers, reflective journal, portfolio assessment, metacognitive strategies, self-assessment, academic autonomy, professional competence, higher education.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕФЛЕКСИВНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье рассматривается эффективность рефлексивных учебных заданий в развитии навыков самостоятельного обучения будущих учителей английского языка. В современных условиях высшего образования особую актуальность приобретает формирование способности студентов самостоятельно планировать, организовывать, контролировать, оценивать и совершенствовать собственную учебную деятельность. Исследование основано на педагогическом эксперименте, наблюдении, анкетировании, диагностическом оценивании и статистическом анализе данных.

Ключевые слова: Рефлексивные задания, самостоятельное обучение, будущие учителя английского языка, рефлексивный дневник, портфолио, метакогнитивные стратегии, самооценка, академическая самостоятельность, профессиональная компетентность.

Kirish. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish, ularni kasbiy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash hamda umrbod ta'lim tamoyillariga mos kompetensiyalarni shakllantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlar hajmining keskin ortib borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ta'lim oluvchilardan mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, o'z faoliyatini rejalashtirish va baholash kabi ko'nikmalarni egallashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta'lim nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish vositasi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan pedagogik,

metodik va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida ham qaraladi. O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qila olishi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda ularni takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqishi zarur. Shu sababli reflektiv faoliyat mustaqil ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Refleksiya pedagogik faoliyatni anglash, o'z tajribasini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan intellektual jarayon hisoblanadi. Reflektiv topshiriqlar esa talabalarning bajarilgan o'quv faoliyati yuzasidan fikr yuritishi, o'z bilim va ko'nikmalarini baholashi, xatolarni aniqlashi hamda keyingi o'quv strategiyalarini belgilashiga xizmat qiladi. Mazkur topshiriqlar talabalarda metakognitiv tafakkurni rivojlantiradi, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtiradi hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham mustaqil ta'lim va o'z-o'zini boshqarish (self-regulated learning) kompetensiyalarini

rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar uchun tashkil etilgan o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarida refleksiya, metakognitiv strategiyalar va o'z-o'zini baholashning uyg'un qo'llanilishi eng yuqori natijalarni berishi qayd etilgan. So'nggi tizimli tahlillar reflektiv mashg'ulotlar nafaqat talabalarining o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini, balki ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatini ham sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, reflektiv topshiriqlarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida reflektiv topshiriqlarning integratsiyalashgan modeli, ularning pedagogik samaradorligini baholash mezonlari hamda metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, reflektiv kundalik, elektron portfolio, maqola tahlili (Article Review) va o'z-o'zini baholash topshiriqlarining yagona metodik tizim sifatida qo'llanilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar cheklangan.

Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, ta'lim psixologiyasi va chet tillarni o'qitish metodikasi yo'nalishlarida keng o'rganilayotgan ilmiy muammolardan biridir. Bilimlar iqtisodiyoti va raqamli ta'lim sharoitida talabaniq mustaqil bilim olishga tayyorligi, o'z o'quv faoliyatini boshqarishi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilishi ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli mustaqil ta'limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi reflektiv yondashuv, metakognitiv strategiyalar va o'z-o'zini boshqarishga asoslangan metodlar ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi.

Refleksiya tushunchasining pedagogik asoslari XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Bu borada J. Dewey refleksiyaning shaxsning tajribasini ongli ravishda tahlil qilishi va undan yangi bilim hosil qilishi jarayoni sifatida izohlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talaba faqat tayyor bilimni o'zlashtirmasligi, balki o'z tajribasi ustida fikr yuritishi va undan xulosa chiqarishi lozim [1]. Gibbs tomonidan ilgari surilgan "Learning by doing" tamoyili keyinchalik reflektiv ta'limning nazariy asosiga aylandi.

Mazkur g'oya keyinchalik D. Kolb tomonidan tajribaviy o'qitish modeli orqali rivojlantirildi. Kolb o'qitish jarayonini konkret tajriba, reflektiv kuzatish, abstrakt konseptualashtirish va faol eksperiment bosqichlaridan iborat uzluksiz sikl sifatida tavsiflaydi [2]. Ushbu model reflektiv topshiriqlarni tashkil etishda metodik asos vazifasini bajaradi, chunki talaba bajarilgan faoliyatni tahlil qilgandan so'ng uni yangi vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik refleksiya masalasini amaliy kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan D.Schön chuqur o'rgangan. Olim refleksiyaning "harakat davomida refleksiya" (reflection-in-action) va "harakatdan keyingi refleksiya" (reflection-on-action) ko'rinishlarida tavsiflaydi [3]. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda mazkur yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog o'z darsini tahlil qilish orqali metodik qarorlarini takomillashtirib boradi.

Keyingi tadqiqotlarda reflektiv faoliyatni amaliy jihatdan tashkil etishga oid turli modellar ishlab chiqildi. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigani Graham Gibbs tomonidan

taklif etilgan reflektiv sikl hisoblanadi. Mazkur model tavsiflash, his-tuyg'ularni aniqlash, baholash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va keyingi faoliyatni rejalashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi [4]. Bugungi kunda Gibbs modeli reflektiv kundaliklar, elektron portfoliolar hamda o'z-o'zini baholash topshiriqlarini ishlab chiqishda keng qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda reflektiv topshiriqlarni elektron portfoliolar, raqamli platformalar va onlayn baholash tizimlari bilan integratsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar elektron portfolio talabalarga o'z rivojlanish dinamikasini kuzatish, bajarilgan topshiriqlarni tahlil qilish va kelgusidagi maqsadlarni belgilash imkonini berishini ta'kidlaydilar [5]. Shu jihatdan Entry Portfolio, Progress Portfolio va Final Portfolio reflektiv faoliyatni tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi samarali vositalar sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham mustaqil ta'limni takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mahalliy olimlar mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik asoslari, kredit-modul tizimida uning o'rni, talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarini o'rganganlar. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida reflektiv topshiriqlar mustaqil ta'limning alohida elementi sifatida ko'rib chiqilgan bo'lib, ularni yagona metodik tizimga birlashtirish, samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash hamda aynan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari misolida kompleks tahlil qilish yetarli darajada yoritilmagan.

Reflektiv topshiriqlar tizimi bir-biri bilan uzviy bog'langan metodik vositalar majmuasi sifatida ishlab chiqildi. Ushbu tizim Reflective Journal, Article Review, Entry Portfolio, Progress Portfolio, Final Portfolio, Self-assessment Checklist hamda Teacher Feyedback kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Har bir topshiriq mustaqil ta'limning ma'lum bosqichini qo'llab-quvvatlaydi va talabalarda reflektiv fikrlash hamda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tamoyillar asosida reflektiv topshiriqlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish modeli ishlab chiqildi. Modelda har bir mustaqil topshiriq reflektiv tahlil, o'z-o'zini baholash va keyingi faoliyatni rejalashtirish bosqichlari bilan yakunlanishi nazarda tutiladi. Bunday ketma-ketlik talabaniq o'quv faoliyatini muntazam tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini baholashda motivatsion, maqsadli, mazmuniy, operatsion-faoliyat, reflektiv hamda natijaviy mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu mezonlar talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini kompleks baholash hamda reflektiv topshiriqlarning pedagogik samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida mustaqil ta'lim faqat auditoriyadan tashqari bajariladigan topshiriqlar tizimi emas, balki talabaniq o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish, baholash va takomillashtirish bilan bog'liq integral pedagogik jarayon ekanligi asoslandi.

Nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarining tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur tuzilma motivatsion, maqsadli, mazmuniy, operatsion-faoliyat, reflektiv, natijaviy hamda resurslar infratuzilmasi komponentlaridan iborat yaxlit tizim sifatida asoslandi. Aniqlanishicha, ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi talabalarining akademik mustaqilligi, kasbiy kompetensiyasi, reflektiv tafakkuri va uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan

integrativ metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizim talabalarning mustaqil faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini yagona metodik mexanizm asosida amalga oshirish imkonini beradi. Tizimning amaliy ahamiyati shundaki, u mustaqil ta'limni epizodik faoliyatdan muntazam, boshqariladigan va natijaga yo'naltirilgan pedagogik jarayonga aylantiradi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoni mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'limda ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallashga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'ysundirilmog'i lozim.

Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xulosa. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida talabaning o'z o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, tashkil etishi, nazorat qilishi, baholashi va takomillashtira olishi uning kasbiy kompetentligining muhim ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan reflektiv topshiriqlar tizimini mustaqil ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb metodik yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath and Company, 1933.
2. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
3. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – London: Routledge, 1983.
4. Gibbs G. Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods. – Oxford: Oxford Polytechnic, 1988.
5. Knowles M. S., Holton E. F., Swanson R. A. The Adult Learner. – 8th ed. – London: Routledge, 2015.